

## "EVALUATION OF THE QUALITY INDICATORS OF THE FASTNESS AND FIBER OF SAMPLES OF MEDIUM FIBER"

Jo`rayev Jonibek Boyniyoz O`g`li

Graduate of the Faculty of Agrobiology of the Institute of development of Termez Agrotechnologies and innovation

**Key words:** cotton, gene pool, diploid, collection, sample, line, woolly fiber, hygrowool, textile industry.

**Annotation.** A significant place in cotton research is occupied by diploid Afro-Asian and Indochinese cotton species of *Gossypium* L. Diploid species have a wide range of polymorphism on morphological and biological characteristics. Clothing and fabric made of such fiber will not lose their originality for a long time. Due to its high hygroscopicity and elasticity, fiber of such forms can be used in pharmaceutical (hygroscopic and cosmetic cotton wool, hygiene products) and in the spinning industry.

**Tanlangan dissertatsiya mavzusining dolzarbligi.** Hozirgi kunda paxta yetishtiruvchi davlatlarda 32,6 mln ga maydonga g`o`za ekilib, qariyb 25,4 mln tonna tola hosili olinmoqda. Jami yetishtiriladigan tola hosilning 60% dan ko`prog`i Xitoy (5,7 mln tonna), Hindiston (5,3 mln tonna) va AQSh (3,8 mln tonna) hissasiga to`g`ri keladi. Keyingi o`rinlarni Braziliya (2,3 mln tonna), Pokiston (1,2 mln tonna) va O`zbekiston (940 ming tonna) egallaydi. Dunyo miqyosida qimmatli xo`jalik belgilari uyg`unlashgan, tola sifati yuqori, bo`lgan navlarni yaratish har doim ham dolzarb hisoblanadi.

Bugungi kunda g`o`za seleksiyasi oldida turgan dolzarb muammolardan biri, qimmatli belgi va xususiyatlar majmuiga ega yangi navlarni yaratish va ishlab chiqarishga joriy etishdan iborat. Ma`lumki, hozirgi kunda Respublikamizda rayonlashtirilib Davlat reyestriga kiritilgan 30dan ziyod g`o`za navlarining tola chiqimi 34–36 % dan oshmaydi. Vaholanki, Avstraliya, Isroil, Xitoy, AQSH,

Turkiya, Gretsiya va boshqa davlatlarning seleksioner olimlari tomonidan tola chiqimi 38–40 % bo‘lgan g‘o‘za navlarini yaratishga katta e‘tibor qaratilmoqda.

Shularni hisobga olganda O‘zbekistonda va aynan issiq iqlimli Surxondaryo viloyatining tuproq iqlim sharoitida o‘rta tolali g‘o‘zaning tezpishar va tolasining texnologik sifat ko‘rsatkichlari yuqori, tola sifati bo‘yicha tipi 4-5 tipga oid navlarni yaratish dolzarb masalla hisoblanadi.

O‘zbekistonda g‘o‘za seleksiyasi XXI asrning birinchi o‘n yilligidan hozirgacha o‘tgan vaqt davomida ishlagan va ishlar davom ettirilmoqda Bu borada sobiq O‘zbekiston paxtachilik ilmiy tadqiqot instituti va shu jumladan O‘zPITIning Surxondaryo filiali tomonidan misli ko‘rilmagan darajada ilmiy tadqiqotlar bajarilgan. Ko‘plab yangi navlar yaratilgan.

Ilmiy yangiligi Surxondaryo viloyati tuproq iqlim sharoitida g‘o‘zaning har xilnav namunalarning tezpisharligi va tolasining texnologik sifat ko‘rsatkichlarini o‘rganish .

Ajratilgan yangi tezpishar texnologik sifati yuqori bo‘lgan navlarni nafaqat Surxondaryo viloyati sharoitida, balki Respublikaning barcha viloyatlari sharoitida shu jumladan shimoliy mintaqalarda ham ekib ertagi va mo‘l sifatli mahsulot yetishtirish mumkin. Tolasi yuqori sifat ko‘rsatkichlarga ega navlarning tolasini xorijiy davlatlarga eksport qilish imkoniyati yaratiladi. Ertapishar g‘o‘za navlari yil noqulay kelganda biroz kechikitirib ekilsa ham rejadagi hosilni beradi. Bundan tashqari o‘ta tezpishar navlarni ertagi arpadan bo‘shagan yerladatakroriy ekin sifatida ekish mumkin.

Surxondaryo viloyati sharoitida “O‘rta tolali g‘o‘za nav namunalarning tezpisharligi va tolasining sifat kursatkichlarini baholash”Mavzusi bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni bajarish rejalashtirildi.

Surxondaryo viloyatining tuproq iqlim sharoitida o‘stirilgan har xil nav namunalarning o‘sish rivojlanish va hosildorligini o‘rganish asosida- tezpishar, mo‘l hosilli va tolasining texnologik sifat ko‘rsatkichlari sifatli va tolasii4-5 tipga oid navlarni ajratish va tanlash ilmiy tadqiqotning maqsadi .

Ilmiy tadqiqot o‘tkazishda quyidagi vazifalar rejalashtirilgan.Har xil g‘o‘za nav namunlarining o‘suv davr davomiyligini aniqlash assosida, navlarni tezpisharligi bo‘yicha,biometrik o‘lchashlar asosida har xil nav namunlarning o‘sish va rivojlanishini o‘rganish, vegetatsiya davrida ayrim fiziologik jarayonlar (fotosintetik sof mahsuldorlik va barglarda xlorofil donachalari miqdori)ni,

mahsuldorlik kursatkichlar va hosildorlikni, tolaning texnologik sifat ko'rsatkichlari: tola chiqimi, tola uzunligi, uzulish uzunligi, metrik nomeri, buraluvchanligini aniqlashdan iborat.

Tajriba Termiz tumani Termiz elita xo'jaligi tuproq iqlim sharoitida o'tkazildi. Dala tajribasi maydonining ochtusli bo'z tuproqli, mexanikaviy tarkibi yengil qumoq, sizot suvining chuqurlik sathi 8-9m. Dala tajribasida G. hirsutum L. turiga oid, Besh qahramon, O'z-FAA-717, O'zFAA-719, Iqbol, Hosilat, S-6301, S-2620, S-5710, Adijon Ziyoy, S-7317, SP -04nav va namunalardan obyekt sifatida foydalanildi. Tajriba paykalchasi (4 qatorli, qatororasi 0,6 m uzunasi 30 m). Tajriba maydoni (4 x 0,6 x 30) 72 kv.m. Dalatajribasi uch yarusda joylashtirilgan, uch qaytariqdan iborat. O'rganilayotgan istiqbolli navlar va namunalarni baholash uchun taqoslab o'rganish maqsadida O'zbekiston Respublikasi hududida ekish uchun tavsiya etilgan qishloq xo'jalik ekinlari Davlat reyestriga kiritilgan va Termiz tumanida asosiy maydonlarda Beshqahramon navidan foydalanildi.

O'rganilayotgan navlarning urug'lari qo'lda tayyorlangan maxsus marker taxtacha (har 16sm oralig'ida belgi qo'yilib, shu belgining ro'parasidan 2 donadan chigit 4 sm chuqurlikda) ekildi.

Urug'lar ekilgandan so'ng egatlarga suv taraldi. Maysalar to'liq unib chiqqandan so'ng bitta uyada bitta o'simlik qoldirib yagonalash o'tkazildi.

Tadqiqotlar olib borishda, o'lchashlar va tahlillar o'tkazish uchun quyidagi metodlardan foydalanildi

1. Tajriba maydoni tuprog'ining kimyoviy tavsifi (0- 30sm, 31-50sm. va 51-70sm. qatlam tuproqdagi gumus, yalpi azaot, yalpi fosfor va yalpi kaliy hamda bu elementlarning harakatchan shakllari miqdorini aniqlash
2. Fenologik kuzatishlar – maysalash (bir juft urug'palla hosil bo'lishi)- haqiqiy chinbarg paydo bo'lish, simpodial shoxlar paydo bo'lishi kabi fazalar ma'lumtolari, fenologi kuzatish jadvaliga yozib borish tartibda - Paxta seleksiyasi urug'chiligi va agrotexnologiyalari ilmiy tadqiqot instituti (PSU va AITI) usulida 2015.y.
3. Biometrik o'lchashlar: - poyasining uzunligi o'suv shoxlar soni, hosil shoxlar soni, birinchi hosil shoxining balandligi, barglar soni.
4. G'o'za har xil navlarida fotosintetik sof mahsuldorlikni aniqlash (N. Nichchiporovich usulida)
5. G'o'za har xil nav namunalariining barglarida xlorofil donachalari miqdorini aniqlash. (N. Ivanova usulida)

6. Maxsuldorlik ko'rsatgichlari: -bitta o'simlikda ko'saklar soni, bitta ko'sakda paxta chiqimi gr. hisobida, bitta ko'sakda chigitlar soni, bir tup o'simlikda paxta miqdori gr.

7. Hosildorlikni aniqlash (bo'lmachalardagi qo'lda terilgan paxta miqdori torozida tortilib, keyin gektar hisobiga o'grildi.) O'z, PITI 2007y

4. Tolaning texnologik sifat ko'rsatgichlari: tola chiqimi, tola uzunligi, uzulish uzunligi, metrik nomeri, buraluvchanligi (Termiz shahar paxta tolasini aniqlash sifat markazida) O'zPITI usuli 2007

5. Hosildorlik ma'lumotlarining statistic tahlili (P. A. Dospexov 1986-yil) bo'yicha Perugudov usulida aniqlandi.

Tajribada g'o'za nav namunalari unib chiqqandan shonalashgacha bo'lgan davr mos ravishda 37,2-28,5 kuni tashkil etdi (1-jadvalga qarang).

Andoza sifatida olingan SP -04 St navida unib chiqqandan shonalashgacha bo'lgan davr 32,6 kuni tashkil etdi. Kuzatuvlarimiz natijasida andoza navga nisbatan erta shonalashga kirishgan namunalari qayd etildi. Jumladan, Hosilat, S-7317, Adijon Ziyo, O'zFAA-719 namunasi 3,4 kunga shonalash jarayoniga oldinroq kirishganligi qayd etildi.

### 1jadval

#### G'o'za nav namunalari unib chiqqandan shonalashgacha bo'lgan

(davr, kun)

№	Namunaning nomi	M±m	σ	V%	Andozadan farqi
1.	Besh qahramon	35,0±1,5	3,4	9,2	2,4
2.	O'z-FAA-717	31,8 ±0,7	2,2	6,7	0,2
3.	O'zFAA-719	30,2 ±1,1	2,5	6,7	4,6
4.	Iqbol	33,0 ±1,1	4,1	12,4	0,4
5.	Hosilat	28,5 ±0,9	3,1	11,1	-4,1
6.	S-6301	33,0±0,5	1,6	4,8	0,4
7.	S-2620	30,6 ±1,1	4,0	13,1	-2,0
8.	S-5710	32,0 ±2,0	2,8	9,0	-0,6
9.	Adijon Ziyo	29,0 ±1,7	3,7	12,7	-3,6

10.	S-7317	29,0 ±0,4	1,0	3,4	-3,6
11.	SP -04 St	32,6 ±0,8	2,7	8,3	-

Bundan tashqari, andoza navga nisbatan kechroq shonalash jarayoniga kirishgan namunalari ham aniqlandi. Bular-Besh qahramon navi, Iqbol va S-6301 kech shonalashga kirishganligi qayd qilindi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki ingichka tolali navlar ekstremal ob-havo sharoitlariga, suvsizlik va garmisel, zararkunanda hasharotlarga chidamliligi, ertapisharligi bilan ahamiyatli. Tolasining uzunligi, pishiqligi va tekstilbopligi bilan jahon bozorida xaridorgir. Boshqa navlar bilan mehnat va resurs sarfi bir xil bo'lgani holda ingichka tolaning iqtisodiy samaradorligi 60 foizga ko'proq bo'ladi.

#### Adabiyotlar:

1. R.Oripov, N.Xalilov. O'simlikshunoslik. Toshkent. 2007. 309.
2. E.T.Shayxov va boshkalar. Paxtachilik. Toshkent. 1990.
3. M.Tojiyev. Ingichka tolali g'o'za navlarini yetishtirish agrotexnologiyasi bo'yicha tavsiyalar. Termiz. 2017 .
4. J.Axmedov va boshqalar. Yangi istiqbolli, hosildor ingichka tolali "Termiz-208" g'o'za navi. "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali Toshkent, 2020. №9.